

DARS JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARDAN
FOYDALANISH

Sotvoldiyeva Hilolabonu

UzDJTU, Ingliz tili 1-fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Avazova Feruza Bahodirovna,

Ikkinchi chet tili kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada interaktiv metodlarning ta'lif jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoriltiladi. Metod sifatida kuzatuv, amaliy tajriba va dars tahlillari asosida tahlil o'tkazildi. Asosiy natijalar interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirishi va bilim samaradorligini kuchaytirishini ko'rsatdi. Shuningdek, o'qituvchining roli va dars mazmuni interaktivlik orqali kuchayadi. Tadqiqot yakunida interaktiv metodlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, ta'lif, faol ishtirok, dars samaradorligi, o'quvchi faolligi

Annotation. This article highlights the role and importance of interactive methods in the educational process. Observations, practical experiments, and lesson analyses were used as methods to conduct the study. The main findings show that interactive methods increase student engagement and enhance the effectiveness of learning. Additionally, the teacher's role and lesson content are strengthened through interactivity. The study concludes with a recommendation to use interactive methods.

Keywords: interactive method, education, active participation, lesson effectiveness, student engagement.

Kirish. O'zbekiston musaqillikka erishgandan keyin ko'pgina davlatlar bilan xamkorlik o'rnatib kelmoqda, shu jumladan Indoneziya Respublikasi o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy aloqalar ayniksa, mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi tufayli kuchayib bormoqda. O'zbekiston va Indoneziya Respublikalarining ikki tomonlama aloqalari ko'p asrlardan buyon davom etib kelgan. Natijada har ikki davlat halqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari yanada mustahkamlanib bormoqda. Shuni etish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori malakali, salohiyatli mutaxassislarga bo'lgan ixtiyoj kuchaymoqda.

Indonez tili, yurtimizda o'rganayotgan xorijiy tillardan biri sifatida, nafaqat tilni o'rganish, balki Indoneziyaning madaniyati va tarixi bilan tanishish imkonini ham beradi. Indonez tilini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli o'rganish muhitini yaratadi.

Innovatsion metodlar ta'lif jarayonini zamonaviy texnologiyalar va kreativ yondashuvlar orqali boyitishga, shuningdek, talabalarning o'quv faoliyatida faolligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari xorijiy til o'qituvchilarining oldida mas'uliyatlari vazifa turibdiki, bu – talabalarning tilga bo'lgan qiziqishini yanada uyg'otish, ta'limga ularni

ijobiy rag‘batlantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Avazova F.B. (2020), yaqin yilgacha fan va texnologiyaning so‘nggi yutug‘i deb hisoblangan narsa endilikda odatiy va keng tarqalgan hodisaga aylangan. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xorijiy til o‘qitish jarayonida tobora muhimroq o‘rin egallamoqda. AKTdan foydalanishda o‘qitish usuli doimiy rivojlanib borayotgan hodisa bo‘lib, uni yanada chuqurroq o‘rganish va tahlil qilish zarur.

Ushbu muammoni yechishda o‘qituvchining ta’lim jarayonida interaktiv metod –innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi hamda ulani hayotga tatbiq etishi muhim ahamiyat kasb etadir. Interaktiv ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasida o‘zaro muloqotning maqsadli ko‘rinishi bo‘lib, uning rivojlanish ketma-ketligini optimal shart-sharoitlarda namoyon etadi.

Interaktiv metodning mohiyatini ochib beradigan yetakchi tushuncha bu – “o‘zaro muloqatdir”. O‘zaro muloqot deganda ikki sub’ekt , ya’ni pedagog bilan talaba orasidagi bevasita axborot almashish, shaxsning “boshqa bir shaxsning rolini o‘z qo‘liga olish” hamda vaziyatga hamrohining o‘z fikrini bildira olish qobiliyati tushuniladi.

Talabalar indonez tili darsida o‘qituvchi tomonidan berilgan “Aqliy hujum” va “Arra”, “Jadval”, “Karta”, “rasm”, “fotosurat” uslublar orqali jamoaviy ijodiy fikrlashga, taqqoslashga hamda miyani hayajonga solish, ya’ni fikrlar bo‘ronini hosil qilishga erishishadi. Shuningdek, “Loyiha” metodi bilan o‘qituvchi talabalarning biron –bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. Bundan tashqari, indonez tili o‘qitishda ko‘rsatmalilik printsipi ham muhim uslublardan hisoblanadi.

Masalan, rasm bilan ishslash ongli faollikni shakllantiradi; fikrni mantiqan to‘g‘ri va keng bayon qilishga ko‘maklashadi; nutqning rang-barang bo‘lishiga yordamlashadi. Rasm bilan ishslash natijasida tilning qonun-qoidalari uzoq vaqt talaba xotirasida saqlanib qoladi. Shuning uchun o‘qituvchi turli xildagi rasmlli jurnallar otkritkalar va boshqa manbalardan olingan ramlar yordamida grammatiq topshiriqli kartochkalar tuzishi va mavzuning mohiyatiga qarab ularadan foydalanish mumkin. Kartochka uchun tanlanadigan rasmlarning mazmuni talabalarni diqqatini torta oladigan bo‘lishi bilan birga, topshiriq shartiga muvofiq kelishi, mavzuning xarakterini ochishga, bilimlarni ko‘nikmaga aylantirishga amaliy yordam ko‘rsatilishi lozim. Tillar o‘qitishda iboralar va maqollarning o‘rni maqaniy jihatdan ham e’tiborga molik (Xakimova S., 2025)

Xulosa qilib, har bir pedagog xodim faoliyati davomida uzlusiz ta’limga va kasbiy mahorati ustida mustaqil ishslashga bo‘lgan talab va tayyorgarligini takomillashtirish bilan bir vaqtida o‘z sohasi bo‘yicha yaratilayotgan axborotlar oqimining muhimligi va zarurligini bilishi, mustakil xolda axborotlarni ishlashi, turli manbalardan, ya’ni internet tarmogidan, jumladan mustaqil o‘rganuvchi indonez tili fanini o‘rganish uchun You Tube kanalida - Learn Indonesian with Indonesian Pod 101.com, Learn Indonesian online, Kendra’s Language School,

Learn Indonesian, Easy Indonesian, Education World va Ibrat farzandlari video darslardan foydalanib, o‘rganuvchi nafaqat o‘rganishni balki yanada qiziqarli ma’lumotlarni egallab o‘lishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2003.
2. Ahmedov A. Notiqlik san’ati – T.: «O‘zbekiston», 1967.
3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 368 b.
4. Avazova, F. B. (2020). Application of New Technologies in The Teaching English Language. *Theoretical & Applied Science*, (4), 911-913.